O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Qobig‘idan tozalangan (po‘stloqsiz) qarag‘ay yong‘oqlarini sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

(DDP-12:2025, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 28-iuyldagi 27/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart DDP-12:2025 “Concerning the marketing and commercial quality control of decorticated peeled pine nuts” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK) huzuridagi Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni jadallashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, rentabellikni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini
himoya qilishga xizmat qiladi. BMT YEIK standartlari hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, importyorlar, eksportyorlar va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi. Ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng qamrovini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish uchun quyidagi veb-saytga murojaat qilishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Qarag‘ay yong‘og‘i mag‘zi uchun mazkur qayta ko‘rib chiqilgan Standart ishchi guruh tomonidan 2013-yilda bo‘lib o‘tgan 69-sessiyada qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/2013/31-sonli hujjatga asoslanadi. U ishchi guruh tomonidan 2022-yil noyabr oyida qabul qilingan quruq va quritilgan mahsulotlar standartlarining yangilangan tartibiga (ECE/CTCS/WP.7/2022/9) moslashtirilgan bo‘lib, bu ECE/CTCS/WP.7/GE.2/2025/10-sonli hujjatda o‘z aksini topgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

QOBIG‘IDAN TOZALANGAN (PO‘STLOQSIZ) QARAG‘AY YONG‘OQLARINI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ОЧИЩЕННЫХ ЯДЕР КЕДРОВЫХ ОРЕХОВ

CONCERNING THE MARKETING AND QUALITY CONTROL OF DECORTICATED PEELED PINE NUTS

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart *Pinus pinea L.*, *Pinus koraiensis*, *Pinus sibirica*, *Pinus yunnanensis*, *Pinus wallichiana*, *Pinus gerardiana* va *Pinus pumila* turlaridan (navlaridan) yetishtirilgan, qobig‘idan tozalangan (mag‘zi olingan) qarag‘ay yong‘og‘i mag‘ziga nisbatan tatbiq etiladi. Standart bevosita iste’mol qilish uchun yoki qo‘shimcha ishlov berilmasdan bevosita iste’mol qilinadigan boshqa mahsulotlar bilan aralashtirish uchun mo‘ljallangan mahsulotlarga mo‘ljallangan[1]. Ushbu standart tuz, shakar qo‘shish yoki tam berish orqali qayta ishlangan, shuningdek, sanoat maqsadlarida (qayta ishlash uchun) mo‘ljallangan qarag‘ay yong‘og‘i mag‘ziga nisbatan tatbiq etilmaydi.

II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi qarag‘ay yong‘og‘i mag‘ziga nisbatan tayyorlash va qadoqlash jarayonidan keyingi sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, standart talablari eksport yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilgan taqdirda, mahsulot egasi/sotuvchi ushbu standart talablariga rioya etish uchun mas’ul hisoblanadi. Mahsulot egasi/sotuvchi mahsulotni ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday holatda namoyish etishi, sotishga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki sotuvga chiqarishi mumkin emas.

A. Minimal talablar[2]

Barcha sifat darajalarida (navlarida), har bir daraja uchun belgilangan maxsus qoidalar va yo‘l qo‘yiladigan chetga chiqishlar (toleranslar) inobatga olingan holda, qarag‘ay yong‘og‘i mag‘zi ko‘z bilan yoki kerak bo‘lganda, 20/20 ko‘rish[3] o‘tkirligiga ega (yoki tuzatilgan) ko‘z bilan kuzatilganda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

---

[1] *Pinus armandii va Pinus massoniana turlari ushbu standartga kiritilmaydi.*

[2] *Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari Standart tartibining III ilovasida keltirilgan — Quruq (po‘stloqli yong‘oqlar va yong‘oq mag‘zi) va quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar va nuqsonlar ta’riflari: https://unece.org/trade/wp7/DDP-Standards.*

[3] *Nuqsonlarni baholashda lupa, binokulyar yoki boshqa kattalashtiruvchi vositalardan foydalanilmasligi kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- butun (yaxlit); bunda yuzaki qismida kuzatiladigan kichik shikastlanishlar nuqson deb hisoblanmaydi.
- zararlanmagan; chirish yoki buzilish oqibatida inson iste’moli uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar qabul qilinmaydi.
- toza, amalda ko‘zga tashlanadigan har qanday begona aralashmalardan xoli;
- yetarli darajada rivojlangan. Mag‘izning 20 foizidan ortig‘iga ta’sir etuvchi, o‘ta yassi va burishgan (juda qisqarib qolgan), yoki suvsizlangan, qurib qolgan yoxud qattiq qismlarga ega bo‘lgan mag‘izlar qabul qilinmaydi.
- dog‘lar, rang o‘zgarishi yoki mag‘izning qolgan qismidan keskin farq qiluvchi va umumiy yuzasining 10 foizidan ortig‘ini egallagan dog‘ izlaridan xoli.
- shakli to‘g‘ri (yaxshi shakllangan);
- rivojlanishining qanday bosqichida bo‘lishidan qat’i nazar, tirik zararkunandalardan xoli bo‘lishi;
- zararkunandalar, jumladan, o‘lik hasharotlar va/yoki kana, ularning qoldiqlari yoki chiqindilari mavjudligidan kelib chiqadigan zararlanishlardan xoli bo‘lishi;
- ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘ordan xoli;
- achishdan xoli (achigan hid yoki ta’mga ega bo’masligi);
- g‘ayritabiiy tashqi namlikdan xoli bo‘lishi;
- begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.

Qaraqag‘ay (kedr) yong‘og‘i mag‘izlarining holati quyidagi imkoniyatlarni ta’minlashi kerak:

- tashish va qayta ishlash jarayoniga chidamlilik;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borish.

B. Tasniflash[4]

Qaraqag‘ay (kedr) yong‘og‘i mag‘izlarining namlik darajasi 3,5 foizdan oshmasligi kerak, *Pinus pinea* (3,5 foizdan 6,0 foizgacha) hamda *Pinus gerardiana* (3,5 foizdan 7,0 foizgacha) turlari bundan mustasno.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

“Chetlanishlarga (tolerantliklarga) oid qoidalar” bo‘limida ruxsat etilgan nuqsonlarga muvofiq, qaraqag‘ay yong‘og‘i mag‘izlari quyidagi navlarga ajratiladi:

“Oliy (Extra) nav”, I nav va II nav.

Ruxsat etilgan nuqsonlar mahsulotning sifati, saqlashga chidamliligiga va qadoqdagi tashqi ko‘rinishi bo‘yicha umumiy ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi kerak.

[4] *Namlik miqdori UNECE’ning Quruq va quritilgan mahsulotlar standartlari bo‘yicha “Standart tartibi”ning II ilovasida keltirilgan 1 va/yoki 2-usul yordamida aniqlanadi. Nizoli vaziyatlarda laboratoriya referent usuli qo‘llanilishi kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

III O‘lchamlarga oid qoidalar

O‘lchamni belgilash ixtiyoriy hisoblanadi. O‘lcham belgilangan taqdirda, u quyidagi jadvalga muvofiq vazn birligiga to‘g‘ri keladigan mag‘izlar soni (soni bo‘yicha) orqali aniqlanadi.

Turi	O‘lcham	100 grammdagi mag‘izlar soni
Pinus pinea, Pinus gerardiana	-	600–700
	-	700 dan ortiq
Pinus koraiensis	550	500–600
	650	600–750
Pinus sibirica	850	800–900
	1100	1000–1200
Pinus yunnanensis	850	800–900
	1200	1000–1500
Pinus wallichiana, Pinus griffithii	400	350–550
Pinus pumila	1800	1700–2400

IV Chetlanishlarga (tolerantliklarga) oid qoidalar

Mahsulotlarni sotishning barcha bosqichlarida, ko‘rsatilgan nav uchun belgilangan minimal talablarga javob bermaydigan mahsulotlar bo‘yicha har bir partiyada sifat va o‘lcham ko‘rsatkichlari bo‘yicha chetlanishlarga (tolerantliklarga) ruxsat etiladi

Nuqson turlari	Ruxsat etilgan chetlan-ishlar, nuqsonli mahsulot foizi, dona yoki vazn bo‘yicha		
	“Oliy nav”	I nav	II nav
a) Minimal talablarga javob bermaydigan mahsulotlar uchun umumiy tolerans	3	5	7
shundan ko‘pi bilan:			
Yetarli darajada rivojlanmagan, qisqarib qolgan va burishgan	1	3	5
Mog‘orlagan	0.5	0.5	1
Achishgan yoki zararkunandalar tomonidan zararlangan, chirigan yoki sifati buzilgan	0.5	2	3
Tirik zararkunandalar	0	0	0
Yog‘li, dog‘li, sariq uchli	1	2	2
Unib chiqish bosqichidagi yong‘oqlar	1	2	4
Yuzaki nuqsonlari yoki urug‘ qobig‘i izlari bor yong‘oqlar	2	4	6
b) O‘lcham bo‘yicha toleranslar (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa)			
Ko‘rsatilgan o‘lchamga mos kelmaydigan mahsulotlar uchun (jami)	5	10	10
c) Boshqa nuqsonlar uchun toleranslar			
Begona aralashmalar (organik kelib chiqishga ega): bo‘sh qobiq, qobiq bo‘laklari, po‘stloq parchalari, barglar, chang; hamda	0.05	0.05	0.05

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

begona moddalar (noorganik kelib chiqishga ega): toshlar, metall va shisha (vazn bo‘yicha)			
shundan ko‘pi bilan:			
Bo‘sh qobiqlar, ajralgan qobiqlar (2,5 kilogrammdagi donalar soni)	1	1	1
Singan mag‘izlar	1	3	10
Ushbu standart bilan qamrab olingan boshqa turdagi qaraqag‘ay yong‘og‘i mag‘izlari (Pinus pineadan tashqari)	2	5	5

V Taqdimotga (tovar ko‘rinishiga) oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning[5] tarkibi bir xil bo‘lishi va tarkibida faqat bir xil kelib chiqishga, sifatga, qadoqga (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa), turga, navga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) va hosil yiliga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) ega bo‘lgan qaraqag‘ay yong‘og‘i mag‘izlarini o‘z ichiga olishi kerak.

Qadoq tarkibining ko‘rinadigan qismi butun qadoq tarkibiga mos (vakillik qiladigan) bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Qaraqag‘ay yong‘og‘i mag‘izlari mahsulotni lozim darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza hamda mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Savdo xususiyatlari yozilgan qog‘oz yoki shtamplar kabi materiallardan foydalanishga ruxsat etiladi, basharti yozuv yoki markalash toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida amalga oshirilgan bo‘lsa.

Qadoqlar “IV. Chetlanishlarga (tolerantliklarga) oid qoidalar” bo‘limidagi toleranslar jadvaliga muvofiq, barcha begona moddalar va aralashmalardan deyarli xoli bo‘lishi kerak.

VI Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[6] bir tomonda guruhlangan, o‘qilishi oson, o‘chib ketmaydigan va tashqaridan aniq ko‘rinib turadigan tarzda belgilangan quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi lozim:

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/ viloyat/pochta indeksi hamda agar u kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat UNECE Kod belgilari reyestriga (UNECE Code Mark

[5] *“Qadoq” (“packages”) atamasi UNECE’ning Quruq va quritilgan mahsulotlar standartlari bo‘yicha “Standart tartibi”ning III ilovasida belgilangan.*

[6] *Ushbu markalash qoidalari qadoqlar ichida taqdim etilgan sotuv qadoqlariga (sales packages) tatbiq etilmaydi.*

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Registry) kiritilgan bo‘lsa, milliy organ[7] tomonidan rasman tan olingan kod belgisi.

B. Mahsulot turi

- “Qaraqag‘ay yong‘og‘i mag‘izlari”
- Turkumning botanik nomi

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Kelib chiqish[8] mamlakati, shuningdek, ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi.

D. Tijorat tavsifi (spetsifikatsiyasi)

- Nav
- O‘lcham (agar saralangan bo‘lsa); III bo‘limga muvofiq ifodalanadi
- Hosil yili (ixtiyoriy)
- “Yaroqlilik muddati” va undan keyin sana (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Qabul qilingan sana:

1993-yil (Qobig‘idan tozalangan, mag‘zi ajratilgan qaraqag‘ay yong‘oqlari uchun BMT YIK standarti sifatida).

Oxirgi qayta ko‘rib chiqilgan sana: 2013-yil.

2022-yilgi Standart tartibi (Standard Layout) bilan uyg‘unlashtirilgan.

---

[7] *Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq (to‘liq) ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kod belgisidan (code mark) foydalanilgan hollarda, “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi” (yoki shunga o‘xshash qisqartmalar) havolasi kod belgisi bilan yaqin bog‘liqlikda ko‘rsatilishi kerak; shuningdek, agar kod belgisini tan olgan mamlakat kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisidan oldin o‘sha mamlakatning ISO 3166 alfa mamlakat kodi keltirilishi lozim.*

[8] *To‘liq yoki umumiy qabul qilingan nom ko‘rsatilishi lozim.*

STANDARTLAR INSTITUTI #BMTBVJ5C4L - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI